

2020/2021 o'quv yilidan boshlab kollejlarda va texnikumlarda tayyorlov yo'nalishlari kesimida to'lov-kontrakt asosida bir o'quvchini o'qitish qiymati mehnatga haq to'lashning eng kam miqdori (MHTEKM)ga muvofiq belgilandi.

Unga ko'ra:

Sog'liqni saqlash, Pedagogika, Biznes va boshqaruv, San'at, Ijtimoiy ta'minot, Xizmat ko'rsatish, Jurnalistika va ijtimoiy axborot – 4 211 846 so'm (MHTEKMning 6,2 barobarida)

Tabiiy fanlar, Transport, Muhandislik ishi, Aloqa va axborotlashtirish, telekommunikatsiya texnologiyalari, Kompyuter texnologiyalari va informatika, Gumanitar fanlar (televideniye yo'nalishi) – 4 075 980 so'm (MHTEKMning 6,0 barobarida)

Qishloq xo'jaligi irrigatsiya va melioratsiyasi, Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, Ishlab chiqarish va qayta ishlash tarmoqlari, Arxitektura va qurilish, Hayotiy faoliyat xavfsizligi, Qishloq xo'jalik texnikasi, Veterinariya, Atrof-muhit muhofazasi – 3 940 114 so'm (MHTEKMning 5,8 barobarida)